

**“O’LIK” QONUNLAR KIMGA KERAK? NORMATIV-HUQUQIY
HUJJATLARNI RASMIY SHARHLASH XUSUSIDA AYRIM FIKR-
MULOHAZALAR.**

Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o`g`li

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Pulatov Otabek A`zamjon o`g`li

Ilmiy rahbar: NamDU Yuridik fakulteti o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali biz fuqarolar huquq va erkinliklari ta`minlanishining asosiy vositasi hisoblangan normativ-huquqiy hujjatlarning samarali ishlashi uchun qonun normalarini sharhlashning o`rni, normativ hujjatlarni sharhlash zaruratining qachon vujudga kelishi haqida so`z olib boramiz. Shuningdek, qonun normalari samarali ishlab, samarasizlarini bartaraf etish yuzasidan ba`zi tavsiyalarni keltirib o`tamiz.

Kalit so'zlar: Sharhlash, o`lik qonunlar, normativ hujjatlarni takomillashtirish, Konstitutsiyaviy sud, rasmiy va norasmiy sharx.

**Who needs "dead" laws? Some comments on the official interpretation of
normative legal documents.**

Abstract: Through this article, we will talk about the role of interpreting legal norms for the effective functioning of normative legal documents, which are the main means of ensuring the rights and freedoms of citizens, and when the need to interpret normative documents arises. In addition, we will give some recommendations on how to effectively develop legal norms and eliminate inefficient ones.

Key words: Commentary, dead laws, improvement of regulatory documents, Constitutional Court, official and unofficial comment.

**Кому нужны «мертвые» законы? Некоторые комментарии к официальной
интерпретации нормативных правовых документов.**

Аннотация: В данной статье мы поговорим о роли толкования правовых норм для эффективного функционирования нормативных правовых документов, которые являются основным средством обеспечения прав и свобод граждан, и при возникновении необходимости толкования нормативных документов. Также мы дадим некоторые рекомендации, как эффективно развивать правовые нормы и устранять неэффективные.

Ключевые слова: Комментарии, мертвые законы, усовершенствование нормативных документов, Конституционный суд, официальные и неофициальные отзывы.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ilk marotaba 2017 yil 22 dekabrda xalqimizga yo'llagan murojaatnomasida¹ parlament qonun ijodkorligi faoliyatiga e'tibor qaratib, "... samarasiz ishchi guruhlar tashkil etish, huquqni qo'llash amaliyotiga ta'sir ko'rsatmaydigan, ijro mexanizmlariga ega bo'lmagan, ta'bir joiz bo'lsa, "o'lik" qonunlar kimga kerak?, degan savolni o'rtaga tashlagan edi.

Bunday salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida "Qonunchilik va normativ hujjatlar ijodkorligini takomillashtirishga doir kontseptsiya" ishlab chiqish va amalga oshirish taklifini ilgari surgani ko'pchilikning yodida bo'lsa kerak.

Oradan ko'p vaqt o'tmadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni² qabul qilindi. Farmonning 2-ilovasidagi "Qonunchilik bazasini tizimlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta'minlash" haqidagi I-bandi, 7 va 8-kichik bandlarida, "To'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarni qabul qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, qonun hujjatlarini qo'llash chegaralarini aniqlash bilan ularning qo'llanilishini tushuntirish bo'yicha Oliy sud plenumi qarorlarini qabul qilish jarayonlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat etish tartibini takomillashtirish, shuningdek, tushuntirish va sharhlashga doir hujjatlar ustidan shikoyat qilish mexanizmlarini joriy etish" vazifasi belgilab berildi.

Mazkur Kontseptsiyaning yuqoridagi tegishli bandlari Konstitutsiyaviy sud oldiga juda dolzarb va mas'uliyatli vazifani qo'ydi. Chunki, mamlakat sud hokimiyati tizimida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan mazkur sud "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning³ 55-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharh berish vakolatiga ega bo'lgan yagona davlat organi hisoblanadi.

Asosiy qism

O'tgan yillar davomida, aniqrog'i, mamlakatimizda Konstitutsiyaviy odil sudlov tashkil topgan 1995 yildan buyon, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi o'zining majlislarida 40 ga yaqin ish ko'rgan. Shulardan, 10 tasida normativ-huquqiy hujjatlarni Konstitutsiyaga muvofiqqligini aniqlagan. Yana 10 ta majlisda qonun normalariga sharh bergan. Qolgan 16 ta sud majlisida amaldagi qonunlar normalarini yanada takomillashtirish, ayrimlarini o'zbek va rus tilidagi tahririni o'zaro

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

² <https://lex.uz/ru/docs/-3858817>

³ <https://lex.uz/docs/-5378966>

muvofiqlashtirishga doir masalalar ko'rib chiqilgan. O'rganish yakuni bo'yicha qonun loyihasi tayyorlanib, Qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan.

2023 yil 30 aprelda bo'lib o'tgan referendumda xalqimiz tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Yangilangan Konstitutsiyada⁴ Konstitutsiyaviy sudga yangi vakolatlar berildi. Bu bilan mamlakatimiz Konstitutsiyaviy sudi faoliyatida yangi davr boshlandi.

Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari va faoliyati xususida alohida maqolada yoritamiz. Hozir bugungi mavzumizga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash masalasiga e'tibor qaratsak.

Ma'lumki, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning 55-moddasiga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Konstitutsiya va qonunlar normalariga rasmiy sharhni Konstitutsiyaviy sud beradi. Oliy Majlis palatalarining qarorlariga rasmiy sharhni Oliy Majlisning tegishli palatalari beradi. Qonunosti hujjatlari normalariga rasmiy sharhni ularni qabul qilgan organlar beradi.

"Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash jarayonida ularga normalarni aniqlashtirishga qaratilgan tuzatishlar, o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi", deb belgilangan.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, qonunga sharh berish rasmiy yoki normasmiy xarakterga ega bo'ladi.

Qonunga norasmiy sharh berish deganda, odatda o'quv darsliklari, olimlar tomonidan tayyorlangan qonun normalariga sharhlar kitobi, advokatura va yuridik maslahatxonalarda fuqarolarga qonunlar normalari yuzasidan beriladigan tushuntirishlar, parlament tomonidan qabul qilingan yangi qonun normalarini targ'ibot-tashviqoti davomida aholiga beriladigan tushuntirishlar tushuniladi.

Buning alohida jihati shundaki, qonun normasiga norasmiy sharh berilganda, bu qonun chiqaruvchining emas, balki muallifning shaxsiy fikri hisoblanadi hamda uni barcha fuqarolar, davlat organlari tomonidan bir xilda tushunish va ijro etish majburiy hisoblanmaydi.

Keling, normativ-huquqiy hujjatni rasmiy sharhlash xususida gaplashaylik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qonun normasiga rasmiy sharh berishning o'ziga xos talablari va xususiyatlari bor.

Birinchi, qonunga rasmiy sharh maxsus vakolatli organ tomonidan beriladi. Qonunosti hujjatlari normalariga rasmiy sharhni ularni qabul qilgan organlar beradi.

⁴ <https://lex.uz/docs/-6445145>

Ikkinchidan, rasmiy sharh vakolatli organing qarori, to'xtami yoki xulosasi bilan rasmiylashtiriladi va matbuotda tegishli tartibda e'lon qilinadi.

Uchinchidan, vakolatli organ chiqargan qaror respublikaning butun hududida fuqarolar va davlat organlari tomonidan majburiy ijro etilishi shart.

To'rtinchidan, vakolatli organ tomonidan qonun normasiga berilgan rasmiy sharh umummajburiy davlat ko'rsatmasi sifatida respublikaning butun xududida bajarilishi shart.

“O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonunning⁵ Konstitutsiya va qonunlari normalarini sharhlash to'g'risidagi ishlarni yuritish, deb nomlagan 85-moddasida: “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalarini rasmiy sharhlash ularda normalarning amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilishiga olib kelgan noaniqliklar topilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sudga Konstitutsiya va qonunlar normalarini rasmiy sharhlash haqidagi murojaatda Konstitutsiyada va qonunda ularning amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilishiga olib kelgan noaniqliklar mavjudligiga doir vajlar hamda dalillar ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Ishni ko'rish yakunlari bo'yicha Konstitutsiyaviy sud qaror qabul qiladi, uning xulosa qismida Konstitutsiya yoki qonuni normasiga rasmiy sharh bo'lishi kerak. Konstitutsiya va qonunlar normalarini rasmiy sharhlash jarayonida ularga normalarni aniqlashtirishga qaratilgan tuzatishlar, o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi”, deb belgilab qo'yilgan.

Bugungi qonunchilikda Konstitutsiya va qonunlar normalarini rasmiy sharhlash haqida fuqarolar va yuridik shaxslar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega emas. Ushbu vakolatga, konstitutsiyaviy qonunning 27-moddasida belgilangan davlat organlari va mansabdor shaxslar ega hisoblanadi. Ko'p hollarda fuqarolar va yuridik shaxslar Konstitutsiya yoki qonunlar normalariga rasmiy sharh berishni so'rab Konstitutsiyaviy sudga murojaat qiladi. Ayrim vaqtlarda fuqarolar tomonidan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rasmiy sharh berish so'raladi.

Fuqarolarga va yuridik shaxslar e'tiboriga shuni alohida yetkazib qo'yishni zarur deb hisoblaymizki, agar, Konstitutsiya va qonunlar normalarini amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilishiga olib kelgan noaniqliklarni topsangiz, ularga rasmiy sharh berishni so'rab “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonunning 27-moddasida ko'rsatilgan sub'ektlar orqali Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishingiz mumkin. Boshqa qonunosti hujjatlarga rasmiy sharh berish haqidagi murojaatlaringizni ularni qabul qilgan organlarga yuborishingiz kerak.

⁵ <https://lex.uz/acts/-5391934>

Ma'lumot o'rnida: Adliya vazirining 2014 yil 28 fevraldagi 53-son buyrug'iga muvofiq⁶ vazirlik va idoralar o'zlari tomonidan qabul qilingan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni to'g'ri va bir xilda qo'llanilishini ta'minlaydi. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatni qo'llash bo'yicha sharh berish zarurati yuzaga kelgan taqdirda, idoraviy normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ tegishli rasmiy sharh berishi shart.

Normativ-huquqiy hujjatga rasmiy sharh berish tartibi yuqoridagi hujjatning 1-ilovasida belgilab berilgan. Shu o'rinda, masalaning yana bir muhim jihatiga e'tibor qaratsak. Ma'lumki, "Sudlar to'g'risida"gi qonunning⁷ 18-moddasi uchinchi qismi ikkinchi xat boshisiga muvofiq, Oliy sud plenumda sud amaliyotining dolzarb masalalarini ko'rib chiqadi va qonunchilikning qo'llanilishi yuzasidan tushuntirishlar beradi.

Qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha Oliy sud plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo'llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

Ayrim huquqshunos olimlar qonunchilikni qo'llanilishi yuzasidan Oliy sud plenumining tushuntirishlarini haqiqatdan ham normativ xarakterga ega hujjat, deb e'tirof etadi. Buni yuqorida qayd etilgan – "Oliy sud plenumining tushuntirishlari sudlar, qonunchilikni qo'llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir", degan norma bilan asoslashadi.

Ayrim taniqli huquqshunos olimlar qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining tushuntirishlarini davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiy ekanligini qonundan tashqarida, deb ta'riflashadi.

Haqiqatdan ham "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunda Oliy sud plenumining tushuntirishlari normativ-huquqiy hujjat hisoblanadimi yoki yo'qmi, degan savolga aniq javob berilmagan. Albatta, bu masala kelgusida nazariyotchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan o'rganilishi lozim.

Qolaversa, yuqorida keltirilgan Prezidentning farmoni 2-ilovasining I-bandi, 8-kichik bandida "Qonun hujjatlarini qo'llash chegaralarini aniqlash bilan ularning qo'llanilishini tushuntirish bo'yicha Oliy sud plenumi qarorlarini qabul qilish jarayonlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat etish tartibini takomillashtirish, shuningdek, tushuntirish va sharhlashga doir hujjatlar

⁶ <https://lex.uz/docs/-2349913>

⁷ <https://lex.uz/docs/-5534923>

ustidan shikoyat qilish mexanizmlarini joriy etish” vazifasi qo’yilgan ekan, ushbu masala dolzarb bo’lib qolaveradi.

Xulosa o’rnida takliflar:

Konstitutsiya va qonunlar normalariga rasmiy sharh berish vakolatiga ega bo’lgan Konstitutsiyaviy sud qonunchilikni qo’llash masalalari bo’yicha Oliy sud plenumining tushuntirishlari ustidan shikoyatlarni, ya’ni ularning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash vakolatiga ega bo’lishi kerak, deb hisoblaymiz.

Albatta, bular bizning shaxsiy fikrimiz ekanligini alohida ta’kidlash o’rinli bo’ladi. Yuqorida bildirilgan takliflar yuzasidan huquqshunoslar, olimlar, mutaxassislarni fikr-mulohazalari biz uchun o’ta muhim xisoblanadi. Qolaversa, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to’g’risidagi ishlarni ko’rar ekan, u mamlakatimizda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qodir bo’lgan “jonli” qonunlar bo’lishidan manfaatdor

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22.12.2017.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni.
3. Normativ-huquqiy hujjatlar to’g’risida”gi Qonun 20.04.2021
4. O’zbekiston Respublikasining 30.04.2023 kungi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi
5. “O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to’g’risida”gi konstitutsiyaviy qonuni
6. Oz.Res adliya vazirining “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni.
7. “Sudlar to’g’risida”gi qonun 28.07.2021